

## Korxonalar va tashkilotlar

(2019 yil 1 fevral holatiga)  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yilning yanvar oyida Viloyatda 295 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 168 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1130 ta (10,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 10608 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1412	1266	19
	Sanoat	1390	1318	58
	Qurilish	1072	1014	37
	Savdo	3018	2778	106
	Tashish va saqlash	593	558	6
	Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	654	604	39
	Axborot va aloqa	166	154	1
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	133	130	3
	Boshqa turlari	2927	2786	26



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019 yilning 1-fevral holatiga 11365 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,6 % savdo, 12,2 % sanoat, 9,4 % qurilish, 12,4 % Qishloq va o'rmon xo'jaligi, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,2 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 25,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3528 ta), Sirdaryo (1811 ta), Sayhunobod (923 ta) va Bayovut (875 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Shirin shahri (259 ta), Sardoba (422 ta) hamda Oqoltin (462 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**





## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 10608 tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1130 ta (10,7 %) ga o'sgan.


01.02.2018 y.  
9478 ta

01.02.2019 y.  
10608 ta

O'tgan yilga nisbatan  
1130 taga oshgan


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 26,2 % savdo, 12,4 % sanoat, 9,6 % qurilish, 11,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,3 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari.)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3338 ta), Sirdaryo (1665 ta), Sayhunobod (902 ta), Boyaut (833 ta) va Yangiyer shahri (791 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (241 ta), Sardoba (406 ta) hamda Xovos (521 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona  
va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar  
kesimida soni, birlikda**

*(fermer va dehaon xo'jaliklaridan tashaari)*

| 01.02.2017 y. |

- 9160 ta

| 01.02.2018 y. |

- 9478 ta

| 01.02.2019 y. |


- 10608 ta



## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar. (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil yanvar oylida 295 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 132,3 % ga ko`pdir. Eng ko`p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Guliston shahri (70 ta), Sirdaryo (69 ta) va Boyovut (32 ta) tumanlari hissasiga to`gri keladi. Aksincha Shirin shahri (6 ta) hamda Xovos (12 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo`yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (106 ta), sanoat (58 ta), qurilish (37 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (39 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (3 ta), axborot va aloqa (1 ta) hamda tashish va saqlash (6 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>166</b>	<b>100,0</b>	<b>127</b>	<b>100,0</b>	<b>295</b>	<b>100,0</b>
Savdo	27	16,3	35	27,6	106	35,9
Sanoat	32	19,3	23	18,1	58	19,7
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	51	30,7	22	17,3	17	6,4
Qurilish	20	12,0	23	18,1	37	12,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	6,6	6	4,7	39	13,2
Tashish va saqlash	9	5,4	5	3,9	6	2,0
Axborot va aloqa	4	2,4	1	0,8	1	0,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	1,2	1	0,8	3	1,0
Boshqa turlari	10	6,1	11	8,7	26	9,0

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar  
kesimida soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

01.02.2017 y.

166

01.02.2018 y.

127

01.02.2019 y.


295



## TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 fevral holatiga 8599 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2735 ta, oilaviy korxonalar – 103 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5547 ta va boshqalar 214 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda (*fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari*)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 112 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 20,5 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarlarning davlatlar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida  
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani (48 ta yoki jamidagi ulushi 42,9 %), Guliston shahri (23 ta yoki 20,5 %) va Yangiyer shahri (13 ta yoki 11,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xovos tumani (1 ta yoki 0,9 %), Guliston tumani (1 ta yoki 0,9 %) va Shirin shahri (2 ta yoki 1,8 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 77 tani (68,8 %), savdoda 11 tani (9,8 %) hamda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 8 tani (7,1 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 tani (3,6 %) boshqa tarmoqlarda 4 tani (3,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,9 %) va qurilishda 7 tani (6,3 %) tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 3 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
davlatlar kesimidagi ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (1 ta), savdo (1 ta), qurilish (1 ta) hissasiga to'gri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2018 yil yanvar		2019 yil yanvar	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	2	100,0	1	33,3
Savdo	-	-	1	33,3
Qurilish	-	-	1	33,3



**Kichik korxona va mikrofirmalar soni.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019 yil 1 fevral holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8554 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 fevral holatiga qaraganda 13,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2861 tasi (33,4 %) Guliston shahri, 1411 tasi (16,5 %) Sirdaryo, 732 tasi (8,6 %) Sayhunobod hamda 669 tasi (7,8 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8554 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2770 tasi (32,4 %) – savdo, 1299 tasi (15,2 %) - sanoat, 1008 tasi (11,8 %) - qurilish, 1245 tasi (14,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 602 tasi (7,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 554 tasi (6,5 %) - tashish va saqlash, 147 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasi, 84 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 845 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rrib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil yanvar oyida 276 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 126,2 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (66 ta), Sirdaryo (69 ta) va Boyovut (25 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirin shahri (4 ta), Sardoba (13 ta) hamda Xovos (12 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (106 ta), sanoatda (58 ta), qurilishda (37 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (19 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta), axborot va aloqada (1 ta) hamda tashish va saqlashda (6 ta) tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 108 tani tashkil etib, ulardan 103 tasi yoki 95,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 37,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,6 % yoki 47 tasi sanoat, 20,4 % yoki 21 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,5 % yoki 16 tasi savdo, 11,7 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,8 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa Axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Tugatilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019 yilning yanvar oyida jami 38 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga tugatish ko'paygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2017 yil yanvar oyida 41 ta, 2018 yil yanvar oyida 34 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bolsa, joriy yilning yanvarda ushbu ko'rsatkich 38 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4 taga tugatish ko'paygan.*

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 38 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 9 tasi (23,7 %) savdo, 2 tasi (5,3 %) sanoat, 2 tasi (5,3 %) qurilish, 3 tasi (7,9 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 5 tasi (13,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (2,6 %) tashish va saqlashda, 16 tasi (42,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
<b>Jami</b>	<b>34</b>	<b>100,0</b>	<b>38</b>	<b>100,0</b>	<b>4</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5	14,7	3	7,9	-2
sanoat	8	23,5	2	5,3	-6
qurilish	3	8,8	2	5,3	-1
savdo	8	23,5	9	23,7	1
tashish va saqlash	3	8,8	1	2,6	-2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	2,9	5	13,2	4
axborot va aloqa	-	-	-	-	-
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
boshqa turlari	6	17,8	16	42,0	10

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI**



2019 yil yanvar oyida 26 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -6 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 9 tasi (34,6 %) savdo, 5 tasi (19,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 5 tasi (19,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Sayhunobod tumanida -8 ta Boyout tumanida -1 ta kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.:67-225-31-00**